

CHET TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Omonova Nilufar Erkinovna

Qarshi tumani 26-maktabning engliz til o'qituvchisi

Annotatsiya : *Ushbu maqolada dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, ushbu metodning darsdagi ahamiyati va vazifalari yoritilgan bo'lib, bu metodni chet tili darslariga tadbiq etish qay darajada amalga oshirilishi bayon etilgan.*

Annotation : *This article describes the use of interactive methods in the course of the lesson ,importance and tasks of this method in the lesson and how to apply this method to foreign language classes.*

Kalit so'zlar: *Interfaol metod, maqsad va vazifalar, o'qituvchi va o'quvchi, chet tili darslari.*

Bilamizki, bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda ta'limgan sifatini oshirish va ta'limgan samaradorligini yaxshilash pedagoglarning eng ustuvor vazifalaridan sanaladi. Bu borada esa, turli xil metodlarning o'rni beqiyosdir. Dars jarayonida mavzuga monand metodlardan foydalanish ayni muddao. Ushbu maqolada mana shunday metodlardan biri interfaol metodiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Interfaol metodi har qanday darsda qo'llanuvchi eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Interfaol – inglizcha “inter” so'zidan olingan bo'lib, “o'rtasida”, “orasida” degan ma'noni anglatadi. Interfaol metod bu ta'limgan jarayonida o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish, faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirish demakdir. Interfaol metodlar o'quvchi va o'qituvchining faol munosabati bir birini tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni darsga tadbiq etishdan maqsad dars qaysi shaklda olib borilmasin, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. Bu jarayonda o'qituvchi faqat yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va kuzatuvchi sifatida ishtiroy etadi.

Dars jarayonida interfaol metoddan foydalanishdan maqsad, o'quvchilarni ijodiy, mantiqiy, tanqidiy va mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Interfaol metoddan foydalanilganda o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, individuallashtirib, tabaqa lashtirib yoki muloqot qilish orqali amalga oshirish mumkin. Bu jarayonda esa, darslik, boshqa adabiyotlar, tarqatma materiallar va multimedialardan foydalanish mumkin.

Albatta , yuqorida aytganimizdek, har bir fanda interfaol metodini qo'llash o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Masalan, chet tili darlarida interfaol metodidan foydalanish qay tarzda amalga oshadi va bu qanday samara beradi. Quyida shular haqida bayon etmoqchimiz. Bugungi kunda bilamizki, chet tiliga alohida e'tibor qaratilib, chet tilini o'rganish talab darajasiga ko'tarildi. Bu talabni to'laqonli ado etish esa, albatta, maktabdagagi chet tili darlarini sifatli va samarali o'tishga borib taqaladi. Shunday ekan, har bir chet tili o'qituvchisi darsga alohida yondashishga, turli metodlardan foydalanishga va bu bilan o'quvchini qiziqtirishga harakat qiladi. Xususan, ingliz tili darsida interfaol metodini qo'llaydigan bo'lsak, darsni quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq deb o'yayman. Biz yuqorida interfaol metodining vositalarini sanab o'tdik, shulardan multimedia vositalari chet tili darlarida qo'llanuvchi interfaol metodini amalga oshirishda ayni muddaodir. Masalan, mavzu “Fruit and vegetables”

ya’ni, “Mevalar va sabzavotlar” mavzusi bo’ladigan bo’lsa, dastlab o’qituvchi mashqda keltirilgan meva va sabzavot nomlari bilan o’quvchini tanishtirib chiqadi. Mavzuga doir mashq bajartiradi. So’ngra multimedia vositalari orqali listening mashqini beradi. Mashq ikki marotaba qo’yib eshittiriladi. Mashqda masalan, meva va sabzavot nomlari aralashtirib aytil eshittiriladi. O’quvchilar mashqni diqqat bilan tinglab, aytilganlarning qay biri sabzavot va qay biri meva ekanligini jadval asosida daftarga qayd etishadi. Yoki bu mavzuni grammatikaga bog’lab ham o’tish mumkin. Ya’ni, multimedia vositalaridan yana meva va sabzavot nomlari qo’yib eshittiriladi. O’quvchilar esa, qaysi birining oldidan qaysi artikl qoyilishini daftarga qayd etishadi. Albatta ,bu listening mashqini eshittirishdan oldin o’qituvchi artikl mavzusi haqida tushuncha berib o’tgan bo’ladi.

Chet tili darslarida interfaol metodidan foydalanish jarayonida bejizga multimedia vositalaridan foydalanishni ma’qul deb topmadik, sababi barcha sinf ingliz tili darsliklarida listening ,ya’ni tinglab bajariladigan mashqlar ko’p berilgan. Bundan tashqari chet tili darslarida interfaol metodini qo’llashda individual ishlash usuli samarali usul hisoblanadi. Bunda esa, tarqatma material vositalaridan foydalanish mumkin. Masalan, o’qituvchi mavzuga oid mashq qayd etilgan tarqatmalarni o’quvchilarga tarqatadi. Tarqatmada meva va sabzavotlarning rasmi keltirilgan bo’lib, o’quvchilar har bir rasm ostiga yoki qarshisiga rasmdagi meva yoki sabzavotning nomini yozishi kerak bo’ladi. Yoki boshqacha usulda amalga oshirish mumkin bu jarayonni. Tarqatmaga meva yoki sabzavot nomlari keltirigan bo’lib , ammo so’z orasidagi ba’zi harflar tushirib qoldirilgan deylik. O’quvchilar tushib qolgan harf qaysi ekanligini bilishlari va yozib qo’yishlari kerak bo’ladi. Bu orqali o’quvchilarning so’zlarni to’g’ri yozish ko’nikmalari shakllantiriladi.

Qisqa qilib aytadigan bo’lsak, interfaol metodi barcha fanlar uchun qo’llaganda yaxshi samara beruvchi sermahsul usul hisoblanadi. Dars jarayoniga bu kabi metodlarni tadbiq etish esa, biz yuqorida qayd etgan ta’lim sifatini oshirishga hamda o’quvchilarni darsga yanada qiziqtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asriyans M. I. “Ingliz tili grammatikasidan mashqlar to’plami” Toshkent. 2005
2. Djuzbayeva D.S. “Ingliz tili grammatikasidan mashqlar to’plami” Toshkent2005
3. Xatamova N.Q, “Ingliz tili darslarida qo’llanadigan interfaol usullar” (uslubiy qo’llanma).